



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 11-12 (930-931)
1-iyul, juma
2022-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil
martdan chiqa
boshlagan

ABITURIYENT – 2022 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

DAVLAT OLIY TA‘LIM MUASSASALARIGA O‘QISHGA QABUL QILISH JARAYONLARINI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

1. Shunday tartib joriy etilsinki, unga ko‘ra:

a) 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab:

davlat oliy ta‘lim muassasalarida ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha masofaviy ta‘lim shakli joriy etiladi;

o‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari tasarrufida ushbu ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralarning taklifi asosida Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

davlat oliy ta‘lim muassasalarida magistraturasiga qabul abiturientning bakalavriat diplom bali o‘rtacha ko‘rsatkichi hamda xorijiy tilni bilish darajasi bo‘yicha tegishli milliy yoki xalqaro sertifikat bali asosida, ballar ketma-ketligiga qat‘iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi hamda qo‘shimcha imtihon o‘tkazilmaydi;

b) davlat oliy ta‘lim muassasalarida magistraturasiga qabul bir yilda ikki marta – avgust va yanvar oylarida tashkil etiladi. Bunda:

avgust oyidagi qabul – navbatdagi o‘quv yili uchun tasdiqlangan davlat granti va to‘lov-kontrakt asosidagi hamda moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta‘lim muassasalarining kuzatuv kengashlari tomonidan tasdiqlangan to‘lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlariga muvofiq;

yanvar oyidagi qabul – dastlabki qabul natijalariga ko‘ra to‘lmagan o‘rinlar hamda Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan qo‘shimcha to‘lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlariga muvofiq amalga oshiriladi;

v) davlat oliy ta‘lim muassasalarida magistraturasiga qo‘shimcha qabul parametrlari asosida o‘qishga qabul qilingan abiturientlarning to‘lov-kontrakt summasi bir talabaga to‘g‘ri keladigan real xarajatlardan kelib chiqib, oliy ta‘lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilanadi;

g) tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt miqdori Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan summadan kam bo‘lmagan miqdorda oliy ta‘lim muassasalarida tomonidan mustaqil belgilanadi;

d) qonunchilik hujjatlariga muvofiq oliy ta‘lim muassasalariga imtihonlarsiz davlat granti asosida o‘qishga kirish bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan shaxslar umumiy qabul parametrlaridan tashqari qo‘shimcha

davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi;

ye) davlat oliy ta‘lim muassasalariga bo‘ysunuvchi bo‘yicha vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda chet el fuqarosini to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini tegishli ta‘lim yo‘nalishi va mutaxassislik uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda belgilash huquqi beriladi. Bunda, chet el fuqarosi oliy ta‘lim muassasasi tomonidan o‘tkaziladigan suhbat natijasiga ko‘ra o‘qishga qabul qilinadi;

j) 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab:

davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari faqat davlat granti bo‘yicha tasdiqlanadi;

davlat oliy ta‘lim muassasalariga (moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta‘lim muassasalarida bundan mustasno) to‘lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlari bo‘ysunuvchi bo‘yicha tegishli vazirlik (idora) tomonidan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi hamda har yili 20-iyunga qadar Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi;

oliy ta‘lim muassasalarida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga mos keluvchi imtihon fanlari majmuasi Oliy

va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda imtihon sinovlari boshlanishidan kamida 6 oy oldin e'lon qilinadi.

2. 2022/2023-o'quv yilidan boshlab respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari hamda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida (keyingi o'rinlarda – respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari) davlat granti asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha 1 000 ta o'rin ajratib borilsin.

Belgilab qo'yilsinki:

Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi davlat granti asosida respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmachisi hisoblanadi;

har yili 1-iyulga qadar mazkur davlat grantining oliy ta'lim tashkilotlari va bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha taqsimoti Davlat komissiyasi tomonidan Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining takliflari asosida tasdiqlanadi hamda Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi;

respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga kirish imtihonlari yakunlangach bir oy muddatda ballar ketma-ketligiga rioya qilgan holda, eng yuqori ball to'plagan va davlat grantini olish istagini bildirgan talaba, tegishli oliy ta'lim tashkiloti hamda Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasida uch tomonlama shartnoma tuziladi. Bunda, talabani ishlab berish majburiyati davomiyligi ta'lim yo'nalishi xususiyatini hisobga olgan holda davlat buyurtmachisi tomonidan belgilanadi.

3. Xotin-qizlarning oliy ta'lim bilan qamrovini oshirish orqali davlat va jamiyatdagi faolligini kuchaytirish, gender tenglikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish maqsadida shunday tizim joriy etilsinki, unga ko'ra:

a) Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining tavsiyanoma-

sini olgan, oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar uchun 2022/2023-o'quv yilidan boshlab bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul parametrlariga qo'shimcha 2 000 ta davlat granti ajratiladi. Bunda:

tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun davlat granti asosida ajratiladigan qabul parametrlarining kamida 50 foizi aniq va tabiiy fanlar, texnika va tibbiyot yo'nalishlari orasida taqsimlanadi;

har yili 20-iyulga qadar tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun davlat granti o'rinlarining oliy ta'lim muassasalari va bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha taqsimoti Davlat komissiyasi tomonidan Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligining takliflari asosida tasdiqlanadi hamda Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi;

b) davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagilar qoplanadi:

2021/2022-o'quv yilida davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga talabalikka qabul qilinib, to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarning 2022/2023-o'quv yili uchun to'lov-kontrakt miqdori;

2022/2023-o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga ajratilgan qabul parametrlari doirasida bazaviy to'lov-kontrakt asosida talabalikka qabul qilingan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt miqdori.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining tavsiyanomasi asosida xotin-qizlarni bakalavriatga qabul qilish hamda davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt summasini Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish tartiblarini tasdiqlasin.

4. Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo'yicha davlat komissiyasi (matn bo'yicha – Davlat komissiyasi) tashkil etilsin va uning tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davlat komissiyasiga quyidagi vakolatlar berilsin:

zarurat bo'lganda, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi, professor-o'qituvchilari tarkibi va o'quv-metodik ta'minotidan kelib chiqib, yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini kiritish hamda tashkil etiladigan yangi davlat oliy ta'lim muassasalari qabul parametrlarini belgilash uchun davlat buyurtmasi parametrlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistraturasiga tegishli tarmoqlar va hududlar bo'yicha maqsadli qabul parametrlarini belgilash, shuningdek, davlat buyurtmasi parametrlarining ta'lim tillari bo'yicha taqsimotini tasdiqlash;

Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi hamda tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralarning takliflari asosida oliy ta'lim muassasalarining (moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalari bundan mustasno) bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bazaviy to'lov-kontrakt qiymatidan kelib chiqib, tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt minimal miqdorining yagona ko'rsatkichlarini belgilash.

5. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashga oid davlat buyurtmasini shakllantirish bo'yicha quyidagi tartib joriy etilsin:

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi doimiy asosda respublika hududlari doirasida davlat organlari, iqtisodiyotning real tarmoqlari va sohalarida ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va aniq kasblar bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan talabni o'rganadi hamda keyingi to'rt yilga mo'ljallangan prognozni shakllantirib boradi;

har yili 1-aprelga qadar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda har bir davlat oliy ta'lim muassasasi bo'yicha ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar kesimida davlat granti asosidagi davlat buyurtmasi parametrlari loy-

ihisini shakllantiradi hamda ko'rib chiqish uchun Davlat komissiyasiga taqdim etadi;

har yili 1-mayga qadar Davlat komissiyasi davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistraturasiga qabul qilish bo'yicha davlat granti asosidagi davlat buyurtmasi parametrlarini shakllantiradi hamda tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritadi.

6. Davlat oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonida abituriyentlarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va Davlat test markazining rasmiy veb-sayti orqali har yili 20-iyundan 20-iyulga qadar (20-iyul kuni ham), chet tili fanidan kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkaziladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha esa 10-iyulga qadar (10-iyul kuni ham) amalga oshiriladi.

Bunda, abituriyentlarga:

test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi va ketma-ketligi bir xil bo'lgan beshtagacha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarini hamda bir vaqtning o'zida barcha ta'lim shakllarini tanlash huquqi beriladi;

ro'yxatdan o'tish jarayonida tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ustuvorligiga qarab dastlab davlat granti, keyinchalik to'lov-kontrakt asosida tanlovda ishtirok etish imkoniyati beriladi.

7. Talabalar o'qishini davlat oliy ta'lim muassasalariga ko'chirish bo'yicha quyidagi tartib joriy etilsin:

a) xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan (jumladan, xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 1 000 ta o'rindan birini egallagan) oliy ta'lim tashkilotlaridan davlat oliy ta'lim muassasalarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlariga ko'chirishda:

talabadan alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar, boshqa ta'lim yo'nalishlari bo'yicha test sinovlari o'tkaziladi. Bunda, kasbiy (ijodiy) imtihonlar tegishli oliy ta'lim muassasasi tomonidan, test sinovlari Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladi;

test sinovlari va kasbiy (ijodiy) imtihonlar bo'yicha o'tish ballari har yili 15-iyulga qadar Oliy va o'rta

maxsus ta'lim vazirligi hamda tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan belgilanadi hamda Davlat test markazining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi;

o'tish balidan past ball to'plagan talabalar bakalavriatga qabul qilishdagi tartibga muvofiq tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi;

test sinovlari va kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari Davlat test markazi hamda tegishli oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi;

b) xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlaridan davlat oliy ta'lim muassasalarining mos va turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishlariga ko'chirishga ruxsat etilmaydi;

v) davlat oliy ta'lim muassasasining biridan boshqasiga talabalar o'qishini ko'chirishga faqatgina quyidagi holatlarda ruxsat beriladi:

talaba oila qurishi munosabati bilan turmush o'rtog'i doimiy yashaydigan hududdagi oliy ta'lim muassasasiga o'qishini ko'chirish uchun murojaat qilganda;

davlat organlarining xodimlari ish joyi o'zgargan taqdirda uning turmush o'rtog'i yoki voyaga yetmagan farzandi o'qishini ko'chirish uchun murojaat qilganda, tegishli vazirlik (idora) rahbarining tavsiyasi asosida;

g) talabalar o'qishini respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan:

davlat oliy ta'lim muassasalarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlariga ko'chirish mazkur bandning "a" kichik bandida nazarda tutilgan tartibda;

davlat oliy ta'lim muassasalarining mos va turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishlariga ko'chirish o'rnatilgan tartibda, tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun belgilangan tabaqalashtirilgan to'lov-kontraktning minimal miqdoriga teng bo'lgan bir martalik to'lov asosida amalga oshiriladi;

d) sport musobaqalari g'olibi sifatida imtiyoz bilan oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan hamda kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar-

ing o'qishini ularning arizalariga muvofiq, sirtqi ta'lim shaklidagi mos va turdosh ta'lim yo'nalishiga (sirtqi ta'lim shakli mavjud bo'lgan taqdirda) davlat granti asosida ko'chirishga ruxsat beriladi.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari davlat oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlarini xavfsizlik talablariga to'liq amal qilgan holda yuqori saviyada tashkil etishga shaxsan mas'ul etib belgilansin.

9. Belgilansinki:

davlat oliy ta'lim muassasalariga davlat buyurtmasi parametrlari doirasida grant asosida bakalavriat va magistraturaga o'qishga qabul qilingan shaxslarni o'qitish xarajatlari Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;

respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash uchun ajratiladigan davlat granti Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyurtmasiga ko'ra 2022-yilda Moliya vazirligi tomonidan qo'shimcha ravishda moliyalashtiriladi, 2023-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ba'zi qarorlari 3-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri A.X.Toshkulov hamda Davlat test markazi direktori M.M.Karimov belgilansin.

Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Sh.MIRZIYOYEV**

TA'LIM – YAGONA NAJOT YO'LI

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Yoshlik – insonning kelajak va ezgulik sari intilish, hayot yo'lining istiqbolini belgilash davridir. Jamiyatning asosiy kuchi ham aynan ular bilan belgilanadi. Bugun O'zbekiston yoshlar uchun imkoniyatlar mamlakatiga aylandi. O'qish, bilim egallab, kasb o'rganish uchun yaratilayotgan sharoit, imkoniyatlarning cheki yo'q. Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosida har bir yosh avlodni o'z mustaqil fikriga ega, milliy urf-odatlarimizni qadrlaydigan, hayotda munosib o'rnini topadigan komil shaxs qilib tarbiyalash maqsadi yotibdi.

Dunyo tajribasiga nazar solsak, ta'limga urg'u bergan davlatlar bugun jahon maydonining iqtisod, siyosat, san'at, madaniyat, sanoat, ilm-fan sohasida mustahkam o'rni va so'ziga ega. Chunki ularning kadrlari jahon mehnat bozoriga yetuk kadr bo'lib chiqmoqda. Ta'lim hamma zamonlarda ham insoniyatning yagona najot yo'li bo'lib kelgan.

Bugungi kunda har qaysi islohot, avvalo, inson manfaatini uchun xizmat qilishi kerak g'oyasi barcha sohalarning shoriga aylandi. Yoshlarning o'z vaqtida savodli bo'lishi, oliy ta'lim olishi, munosib hayot yo'lini tanlashi, kasbi-korga yo'naltirilishi maqsadida ta'limdagi shaffoflikni ta'minlash davlat siyosatining eng birinchi masalalaridan biridir. Demak, farzandlarimizning hozirgi, oltin teng davrida munosib ta'lim

olishlari uchun shart-sharoit, imkoniyat yaratib bersak, ertangi kunida butunjahon minbarlarida raqobatbardosh kadrlar bo'la oladi va vatanimiz nufuzini, o'rnini xalqaro maydonda yanada mustahkamlaydi. Buning uchun esa oliy ta'lim tizimi shaffofligini ta'minlash barcha rahbarlarning oldidagi katta vazifasi sanaladi.

Ayniqsa, keyingi yillarda jamiyatimizda ayollarga e'tibor kuchaytirildi. Tarixga nazar tashlasak, har bir buyuk shaxs ortida oqila, bilimli ayol turibdi. Bugungi qizlarimiz ertangi millat tarbiyachilari. Komil avlod uchun o'z so'zi, dunyoqarashiga ega qizlar tarbiyalashimiz kerak. Shu maqsadda ta'lim tizimida ham qator islohotlar tatbiq etilyapti. Shulardan biri, yangi o'quv yilidan boshlab magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq davlat budjetidan qoplab beriladi. Endi har yili 50 nafar qizlar nufuzli xorijiy oliygohlarga bakalavr va 10 nafar magistratura ta'limini olishga yuboriladi.

Har bir viloyatda ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qotgan 150 nafar qizlarning ta'lim kontrakti mahalliy budjetdan to'lab beriladi. Hamda yosh farzandi bor talaba-qizlarga masofaviy o'qishga sharoit yaratiladi.

Doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi. Ayol – jamiyatning yuragi. Ular nafaqat kelajak avlod tarbiyachisi, muhit yaratuvchilari hamdir. Ta'limdagi bu islohotlar barchamizni quvontiradi.

Bu yilgi qabul jarayonidagi o'zgarishlardan 5 yillik ish stajiga ega xotin-qizlar uchun 500

ta kvota ajratilganini, xorijiy OTMlar uchun ajratilgan kvota mazkur o'quv yilda 2 baravarga oshirilishini, 6 ta OTMda chet tili sertifikatiga ega bo'lgan abituriyentlarga maksimal ball qo'shib berilishi va boshqalarni sanab o'tish mumkin. Yangi o'quv yilida institutimizga ajratilgan qabul kvotalariga kelsak, hammasi bo'lib bakalavr yo'nalishida 840 ta talaba qabul qilinadi.

Shu jumladan Pediatriya fakultetiga 520 ta, Davolash ishi fakultetiga 195 ta, Tibbiy biologiya fakultetiga 65 ta, Xalq tabobati fakultetiga 30 ta, Oliy hamshiralik ishi fakultetiga 30 ta talaba qabul qilinadi.

O'sib kelayotgan bilimga chanqoq yoshlarni talabiga mos ravishda oliy ta'limga qamrab olish davlatimiz oldidagi asosiy vazifa.

Iyun oyidagi videoselekt yig'ilishida Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oliy ta'limdagi to'rtta ustuvor vazifani belgilab berdilar. Ushbu ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda har bir oliy o'quv yurti jamoasidan katta mehnat talab qilinadi. Demak, barchamiz ta'lim islohoti uchun kelajak avlodga shaffof ta'lim tizimini yetkazishda birdek mas'ulmiz.

Mehnat bozorini zamonaviy ehtiyojlariga mos kadrlar bilan ta'minlash har bir davlat uchun muhim masala. Bu esa o'z navbatida yoshlarni ilmga, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining qay darajada tashkil etilishiga bog'liq.

Aziz abituriyentlar! Ezgu niyatlar bilan katta hayot yo'liga qo'ygan qadamingiz qutlug' bo'lsin! Talaba degan sharaffi nomga erishingizni tilab qilaman!

PEDIATRIYA ISHI TA'LIM YO'NALISHI

Institut bilan tengdosh Peditriya yo'nalishi boy tarix va an'analarga ega. Uning bitiruvchilari O'zbekiston Sog'liqni saqlash tizimining turli bo'g'inlarida faoliyat ko'rsatadilar. Bu yo'nalish xalqaro nufuzga ega bo'lgan yirik olimlar, mohir tibbiyotchilar: peditr, neonatolog, bolalar jarrohlari, oftalmotolog, travmatologortoped, otolaringologlarni yetishtirib beradi.

Bu yo'nalishda ta'limning kunduzgi shaklida o'qish muddati 6 yil. Ixtisosligi: shifokor umumiy peditr. Shifokor umumiy peditr ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar tomoni-

dan bo'sh o'rinlarni egallash mumkin bo'lgan lavozimlarda ishlash uchun davlat muassasalarida (qishloq, shahar shifokorlik punktlarida, ambulatorypoliklinik muassasalarida, tez va shoshilinch yordam xizmatlarida, stasionarning maxsuslashtirilmagan bolalar bo'limlarida, maktabgacha va maktab qoshidagi bolalar muassasalarida, bolalar profaktoriylari va dam olish uylari), nodavlat tibbiy muassasalarida shaxsiy va individual tarkibdagi faoliyat uchun tayyor bo'lishlari kerak.

Shu bilan birgalikda shifokor umumiy peditr bakalavriat yo'nalishining chegarasida tan-

langan mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limni davom ettirishga, qayta tayyorlash va malakani oshirish tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olishga ham tayyor bo'lishi lozim.

Ish faoliyati: oliy o'quv yurtlari oliy ma'lumotli mutaxassisga mo'ljallangan o'rinlarda ishlash. Umumiy peditr shifokor davlat muassasalarida qishloq uchastka kasalxonalarida, tez yordam xizmatlarida, tibbiy sanitariya qismlarida, shifokorlik sog'lomlashtirish punktlarida, sanatoriy-profilaktoriylarda, dam olish uylarida, nodavlat tibbiy muassasalarida xususiy yakka tartibda ishlashlari mumkin.

DAVOLASH ISHI TA'LIM YO'NALISHI

Davolash ishi ta'lim yo'nalishiga qabul 2010-yildan boshlab amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur yo'nalishning sog'liqni saqlash sohasidagi o'rni quyidagicha:

Ushbu ta'lim yo'nalishi tibbiyot sohasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga mutasaddili qobiliyatiga yo'naltirilgan inson salomatligini saqlash faoliyati vositalari, usullar va uslublarining majmuasini o'z ichiga oladi.

Umumiy amaliyot shifokori oliy va o'rta maxsus tibbiyot muassasalari, davlat muassasalarida (qishloq va shahar tibbiyot punktlarida, ambulatory-poliklinik muassasalarda, tez tibbiy va shoshilinch tibbiy yordam xizmatlarida), nodavlat tibbiyot muassasalarida, xususiy yakka tartibda ishlashi mumkin.

Ushbu yo'nalishning kasbiy faoliyat turlariga tibbiy-profilaktik, tez va shoshilinch tibbiy yordam, davolash tashxislash, rehabilitatsiya,

tibbiy ijtimoiy yordam, ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarni tashkil-lashtirish kiradi. Fakultet talabalari institutning amaldagi nizomiga binoan:

zamon darajasida rivojlangan fan, texnika va madaniy bilimlari egallash;

oliy o'quv yurti faoliyatiga oid muhim masalalarni hal qilish va muhokamasida, shu jumladan, jamoat tashkilotlari orqali oliy o'quv yurtlarining boshqaruv organlari ishlarida qatnashish;

kutubxona, axborot jamg'armasi, oliy o'quv yurti o'quv, ilmiy, davolash va boshqa bo'linmalarining xizmat turlaridan bepul foydalanish:

ilmiy-tadqiqot ishlarida, konferensiya va simpoziumlarda qatnashish, o'z ishlarini oliy o'quv yurtining nashrlariga taqdim etish;

O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga zid bo'lmagan oliy o'quv yurti talabasiga berilgan boshqa huquqlardan foydalanish imkoniyatiga egadirlar.



XALQ TABOBATI TA'LIM YO'NALISHI



Toshkent tibbiyot akademiyasida xalq tabobati ta'lim yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" xaqidagi PQ-4668 – son qaroriga asosan tashkil etildi.

Bakalavriat tizimida tibbiy ta'lim yo'nalishi, o'qish muddati va bitiruvchilar kvalifikatsiyasi.

60911100-xalq tabobati ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi aholi salomatligini ta'minlash, tibbiy sanitar yordam ko'rsatish, turli xil, ayniqsa surunkali kasalliklar profilaktikasida va ularni davolashda sifat, xavfsizlik va samaradorlik jihatidan amalda sinalgan xalq

tabobati usullarini o'rganish va amaliyotda qo'llashni o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Xalq tabobati ta'lim yo'nalishini bitirgandan so'ng ishlashi mumkin bo'lgan mutaxassisliklar:

– Xalq tabobati mutaxassisi sog'liqni saqlash tizimida, oilaviy poliklinikalarda, davlat budjetidagi va xususiy klinikalarda. Quydagilar bilan shug'ullanadilar: kasalliklarni tashxislash, davolash va profilaktikasida xalq tabobatining asosiy usullarini (fitoterapiya, akupunktura, ayurveda, gomeopatiya, yoga, moksoterapiya, naturopatiya, osteopatiya, termal tibbiyot, xiroamaliyot, sigun va boshqalar) qo'llash.

– Ta'lim yo'nalish – 60911100 xalq tabobati.

– O'qish shakli – kunduzgi.

– O'qish muddati – 4 yil.

– Mutaxassisligi – xalq tibobati mutaxassisi.

– Maqsad – xalq tabobatining asosiy yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy tibbiyotda ularni qo'llash.

Maqsad – xalq tabobatining asosiy yo'nalishlarini (fitoterapiya, akupunktura, ayurveda, gomeopatiya, moksoterapiya, naturopatiya, osteopatiya, termal tibbiyot, xiroamaliyot, maxsus jismoniy tarbiya usullarini: sigun, yoga va boshqalar) rivojlantirish, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy tibbiyotda ularni qo'llash.

Xalq tabobati ta'lim yo'nalishini bitirgandan so'ng ishlashi mumkin bo'lgan mutaxassisliklar.

Xalq tabobati mutaxassisi sog'liqni saqlash tizimida, oilaviy poliklinikalarda, davlat budjetidagi va xususiy klinikalarda. Quydagilar bilan shug'ullanadilar: kasalliklarni tashxislash, davolash va profilaktikasida xalq tabobatining asosiy usullarini qo'llash, zamonaviy tibbiyotga integratsiya qilish

TIBBIY BIOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2909-sonli qarori asosida institutimizda tibbiy-biologiya ishi ta'lim yo'nalishi ochildi.

Ta'limning kunduzgi shaklida o'qish muddati 4 yil bo'lib, Tibbiybiologiya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning ilmiy pedagogik, ilmiy-tadqiqot, tibbiy tashxislash, tibbiy ijtimoiy, tashkiliy boshqaruv, kasbiy faoliyat turlari mavjud.

Shuningdek, pedagogik qayta tayyorlov o'tgandan so'ng o'rta maxsus ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish mumkin. Tibbiybiologiya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy tayyorgarlikdan keyin biologiya



(yo'nalishlar bo'yicha), mikrobiologiya va virusologiya, biotexnologiya, biofizika, tibbiybiologik apparatlar, tizim va majmualar, morfologiya (yo'nalishlar bo'yicha), tashxisning instrumental va funksional uslublari (yo'nalishlar bo'yicha), farmakologi-

ya va yangi yo'nalishlar bo'lgan molekulyar genetika, biologik tibbiy texnologiyalar, tibbiy biologiya, tibbiy biofizika, tibbiy kibernetika, molekulyar farmakologiya bo'yicha ta'limni davom ettirishlari mumkin.

XALQARO FAKULTET

Xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan ishlar hamda xalqaro fakultetlarning tashkil etilishi bo'yicha Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining Xalqaro hamkorligi doirasida 68 xorijiy tibbiy ta'lim va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda 12 yo'nalish bo'yicha ishlar amalga oshirilmogda. Shular jumlasidan, institut professor o'qituvchilarining chet elda bir oylik malaka oshirish kurslarida ishtirok etishlarini hamda chet ellik mutaxassislarni ToshPTIda ilmiy-amaliy va ta'lim berishlari yo'lga qo'yilgan. 2019-2020-o'quv yilidan boshlab institutda Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg Davlat Pediatriya tibbiyot universiteti bilan 2018-yil 18-oktabr kuni O'zbekiston-Rossiya ta'lim forumi doirasida imzolangan shartnomaga asosan hamkorlikda Xalqaro fakultet tashkil etildi va uning tarkibida "Pediatriya ishi" va "Davolash ishi" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalarni o'qitish amalga oshirilmogda.

Ushbu 2020-2021-o'quv yilidan boshlab "Stomatologiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha qo'shma bakalavriat dasturi asosida talabalarni qabul qilish rejalashtirilgan. Oliy ta'limdan keyingi magistraturaning "Sog'liqni saqlashni tashkillashtirish" mutaxassisligi va



klirik ordinaturaning "Neolatologiya", "Bolalar jarrohligi", "Nevrologiya" va "Otorinolarinologiya" mutax-

assisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari asosida qabul amalga oshiriladi.



"OLIY HAMSHIRALIK ISHI" BO'LIMI

Oliy ma'lumotli hamshiralar tayyorlash – O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida sog'liqni saqlash tizimiga yuqori malakali, zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlab berishdir.

1999-2000-o'quv yilida Prezident Farmoniga asosan "Oliy ma'lumotli hamshira" bo'limi tashkil topgan: u 2002-yildan beri "Oliy hamshiralik ishi" bo'limi deb ataladi. Bu bo'limga tibbiyot kollejlarning bitiruvchilari hamda amaliyotda ishlagan hamshiralar qabul qilinadi.

Bo'limda o'qish muddati 3 yil. Akademik daraja "Bakalavr". Bakalavr esa ta'lim yo'nalishi bo'yicha

oliy ma'lumotli hamshiralar egalashi kerak bo'lgan ish joylarda mustaqil faoliyat ko'rsatishga, bakalavriatning belgilangan yo'nalishi doirasida, tanlangan mutaxassislik bo'yicha tegishli bo'lgan magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olishga tayyorlangan bo'lishi kerak.

Oliy hamshiralik ishi aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, kasallarni parvarish qilish va davolash, odam organizmidagi turli xil kasalliklarning oldini olish va reabilitatsiya qilish uchun foydalaniladigan bilimlar, usullar, amaliy ko'nikmalar jamlamasini qamrab olgan tibbiy fanlar yo'nalishi. "Oliy

hamshiralik ishi" mutaxassisligini olgan shaxslar sog'liqni saqlash muassasalarida bosh hamshira (Hamshiralik ishi menedjeri), davoprofilaktik muassasalari bo'limlarining katta hamshirasi, jarrohlik xonasi katta hamshirasi, jarrohlik bo'limi hamshirasi, anesteziologiya va reanimatsiya bo'limi hamshirasi, doya, tug'ruq bloki doyasi, hamshiralik ishi o'qituvchisi, vrach-statist sifatida faoliyat yuritishlari mumkin.

Oliy ma'lumotli hamshira o'rnatilgan tartibda oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

MAGISTRATURA BO'LIMI HAQIDA

Oliy o'quv yurtining bakalavriat bosqichini yakunlash arafasida turgan barcha talabalarni ta'limning keyingi bosqichi to'g'risidagi ma'lumotlar qiziqtirishi tabiiy. Shu tufayli bugungi sahifamizda magistratura bo'limi haqida ma'lumot bermoqchimiz.

ToshPTIda magistratura orqali aniq mutaxassislik bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash 2000-2001-o'quv yilidan amalga oshirila boshlangan. Hozirgi paytgacha 36 ta mutaxassislik bo'yicha 2307 nafar magistr tayyorlanib, ular oliy tibbiy ta'lim muassasalarida, ilmiy va ixtisoslashgan markazlarda, ilmiy tekshirish institutlari va sog'liqni saqlash tizimining barcha sohalarida yetuk mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatib kelishmoqda.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida o'qitish muddati Davlat ta'lim standartlarida belgilangan 2 yoki 3 yil davom etuvchi ta'limdir.

Amaldagi nizomga asosan "Magistr: tanlangan mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbiy faoliyatni mus-



taqil yuritishga; kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga; oliy ta'lim muassasasidan keyingi ta'limni magistlik tayyorgarligiga muvofiq mutaxassislik bo'yicha katta ilmiy xodim izlanuvchilar institutida davom ettirishga; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olishga tayyorlanadi".

Respublikamizda oliy tibbiy ta'lim bo'yicha Jahon Federatsiyasi hamda Jahon Sog'liqni Saqlash Assotsiatsiyasining tavsiya va rezolyutsiyalarini inobatga olgan holda tashkil etilgan. JSST va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar tomonidan ona va bola salomatligi muhofaza qilinishining o'zbek modeli sifatida tan olingan konsepsiyada moddiy-texnik bazani rivojlantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish qatorida xalqaro andozalarga mutanosiblikdagi yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning malakaviy salohiyati eng muhim omillardan biri etib belgilangan. 2022-2023-o'quv yilida quyidagi


mutaxassisliklarga magistrlar qabuli bo'lib o'tadi: Akusherlik va ginekologiya, endokrinologiya, terapiya (yo'nalish bo'yicha), otorinolarinologiya, kardiologiya, oftalmologiya, yuqumli kasalliklar (yo'nalishlar bo'yicha), dermatovenerologiya, nevrologiya, psixiatriya, xirurgiya (yo'nalishlar bo'yicha), tashxisning instrumental va funksional usullari (yo'nalishlar bo'yicha), neyroxirurgiya, Sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash (yo'nalishlar bo'yicha), tibbiy psixologiya, morfologiya (yo'nalishlar bo'yicha), travmatologiya va ortopediya, sud-tibbiyot ekspertizasi, shoshilinch tibbiy yordam, pediatriya (yo'nalishlari bo'yicha), bolalar xirurgiyasi, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi, bolalar yuqumli kasalliklari.

Magistraturaga kiruvchilarga chet tilini bilish talabi hamda mutaxassislik bo'yicha ijodiy qobiliyatni belgilash mezonlari kiritilgan.

Sh.S. ABDULLAYEV

ToshPTI magistratura bo'limi boshlig'i



 <p>PEDIATR</p> <p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A. Nosirov, Nashr uchun mas'ul: Sh. Abduhoshimova</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, H. Abidov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223</p> <p>"XALQ NASHRIYOTI" XKda chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Qorasaroy ko'chasi, 316 uy. Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02. buyurtma adadi 110 nusxa, qog'oz bichimi A3.</p> <p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
--	---	--	--